

# XALQARO MOLIYAVIY MARKAZLARNI SHAKLLANTIRISHDA XALQARO REYTINGLAR VA INDEKSLARDAGI BAHONING AHAMIYATI

**Alimardonov Elshod Dilshodovich**

TMI, “Xalqaro moliya-kredit” kafedrası dotsenti, i.f.n., dots

## **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada milliy iqtisodiyotga xorijiy kapitalni jalb etishda xalqaro moliyaviy markazlarni shakllantirish, xalqaro moliyaviy markazlarni baholashda xalqaro reytinglar va indekslardan foydalanish zarurati o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** xalqaro moliyaviy markaz, xalqaro reyting, xalqaro indeks, xorijiy investitsiya, investitsiya muhiti.*

## **THE SIGNIFICANCE OF ASSESSMENT IN INTERNATIONAL RATINGS AND INDEXES IN THE FORMATION OF INTERNATIONAL FINANCIAL CENTERS**

### **ANNOTATION**

*This article examines the necessity of forming international financial centers for attracting foreign capital to the national economy, using international ratings and indices for evaluating international financial centers.*

***Key words:** international financial center, international rating, international index, foreign investment, investment environment.*

### **KIRISH**

Zamonaviy va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan innovatsion rivojlanish, farovon turmush tarzi turli munosabatlar bilan bog‘liq moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qolmaydi, albatta. Ayni paytda, yurtimiz

shaharlarini kompleks qurish bo'yicha qabul qilingan dasturlarning hayotga tatbiq etilishi natijasida bir qator shaharlar xususan, Toshkent shahri qiyofasi tubdan o'zgarib bormoqda. Bu esa, mamlakatimiz shaharlarini iqtisodiy-moliyaviy qudrati va infratuzilmasini rivojlantirishga hukumatimiz tomonidan katta e'tibor berilayotganligini tasdiqlaydi.

Moliyaviy markazlar rivojlanishida avval, moliyaviy resurslar bozorida kuchli raqobat hisobiga xalqaro integratsiyalashgan moliya bozorida barqaror va samarali raqobat yuzaga kelgan bo'lsa, bugungi kun va kelajakda moliyaviy markazlar taraqqiyotini innovatsion Ekotizim va "aqlli" moliyaviy markazlari belgilamoqda. Istiqbolda markazlarning xususiyatlari tarmoqlarning global darajada bog'liqligining kuchayishi hisobiga, bir nechta yoki barcha moliyaviy markazlarga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Xalqaro moliyaviy markazlar jahon miqyosidagi shaharlarning o'zaro aloqalarining kengayishi va undagi moliyaviy oqimlarning ortishi natijasida shakllanadi. Ma'lum shaharning xalqaro moliyaviy markaz sifatida rivojlanishi moliya bozorida yaratilgan shart-sharoitga, iqtisodiy o'sish va rivojlanish imkoniyatlariga, sanoatning qo'llab-quvvatlanishiga, shaharda xizmat ko'rsatish darajasi va standartlari, umumiy milliy muhit holatiga bog'liqdir.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI**

P. Geddes [1] va P. Xoll [2] tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar G. Rid [3][4] va Ch. Kindlberger[5]lar tomonidan yangicha ko'rinishlar bilan rivojlantirilgan va xalqaro moliyaviy markazlar to'g'risidagi ta'limotlar nazariyasini shakllanishiga olib kelgan. shuningdek mazkur tadqiqotlar moliyaviy va iqtisodiy fanlar taraqqiyotiga o'z xissasini qo'shgan deb hisoblaymiz. Shu bilan birga, G. Rid tomonidan ilgari surilgan nazariy qarashlar, taklif va xulosalar bugungi kun xalqaro moliyaviy markazlar nazariyasini o'rganishda eng asosiy rolni o'ynamoqda.

*Xalqaro hisob-kitoblar banki (BIS)* xalqaro moliyaviy markazni bank faoliyati jamlangan jahondagi tarmoq markaz sifatida izohlaydi [6].

*Gonkong Monetar organi* bu atamani boshqacha talqinini beradi, ya'ni xalqaro moliyaviy markaz bu kuchli raqobat sharoitida butun dunyodagi moliyaviy institutlar moliyaviy vositachilikni amalga oshirish uchun birlashadigan joy (masalan, jamg'armalarni bir mamlakatdan boshqa mamlakatga investitsiya sifatida yo'naltirish) [7].

AQShning Chikago shattidagi Loyola universiteti professori va Chikago Federal rezerv bankining maslahatchisi *Djordja Kaufmann*ing so'zlariga ko'ra, xalqaro moliyaviy markazlar xalqaro miqyosda moliyaviy vositachilikni amalga oshirish uchun moliyaviy institutlar birlashadigan makondir [8].

Gonkong universitetining Osiyo global institutida xizmat ko'rsatgan ilmiy xodim, Gonkong fyuchers va qimmatli qog'ozlar komissiyasi raisi lavozimida ishlagan *Endryu Shenning* fikriga ko'ra, xalqaro moliyaviy markazlar turli aktivlar bo'yicha bitimlarni amalga oshirishda qatnashuvchi jahon moliya bozoridagi yirik sub'ekt sifatida o'z o'rniga egadir [9].

Ayni paytda, *Djeyms Xayns*[10], *Attiya Varis*[11], *Djared Maranga*[12] va boshqa olimlarning fikricha, xalqaro moliyaviy markazlar "offshor markaz" atamasi bilan sinonim degan fikrga kelishgan. Bunda, offshor markaz past soliq stavkalari va investorlar uchun jozibador qiladigan bir qator atributlarga ega bo'lgan mamlakat yoki hudud sifatida tushuniladi.

MDH mamdakatlari ilmiy adabiyotlarda "xalqaro moliyaviy markaz" tushunchasining quyidagi talqinlari ustunlik qiladi.

*L.N. Krasavinaning* fikricha, jahon moliyaviy markazlari bu xalqaro moliyaviy oqimlar va yirik hajmdagi operatsiyalarning nisbatan foydali bo'lgan sohalar bo'yicha taqsimoti natijasida ma'lum bir joyda to'planishi, yoki marzkazlashuvini anglatadi. Tarixan, ular milliy bozorlar negizida, keyinchalik jahonning valyuta, kredit, fond va oltin bozorlari asosida paydo bo'lgan. Shuning uchun, jahon moliyaviy markazlari tarkibida moliya bozorining barcha sektorlari joylashgan [13].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan J.Ataniyazov o'z izlanishlarida xalqaro moliyaviy markazlarni shakllantirishda tijorat banklarining o'ri va zaruriyatini o'rgangan [14].

*J.Ataniyazov va S.Narimonovlar* o'z tadqiqotlarida xalqaro moliyaviy markazlarni shakllantirishda fond bozorining tutgan o'ri va ta'sirini ko'rib chiqishgan [15].

Umuman olganda, nazariy qarashlarda "xalqaro moliya markazi" tushunchasiga nisbatan yagona yondashuvlar mavjud emas. Soha olimlari o'z davri, joylashgan joy yoki hudud nuqtai nazaridan, o'z ilmiy izlanishlari natijalaridan kelib chiqib, fikrlarini bildirishgan.


## TAHLIL VA NATIJALAR

2007 yildan boshlab e'lon qilinib kelayotgan global moliyaviy markazlar indeksi (The Global Financial Centres Index, GFCI) ko'rsatkichlarida Gong-Kong va Singapur moliyaviy xizmatlar ko'rsatishning barcha turlari bo'yicha Nyu-York va Londondan keyingi yirik global moliyaviy markazlar sifatida dunyoda tan olinib kelinmoqda .

Jahon bo'ylab e'lon qilinadigan GFCI ikkita alohida ma'lumotlar manbasi, ya'ni vositali omillar (instrumental factors, yoki xalqaro reytinglar, indekslar) va onlayn so'rov natijalari bo'yicha moliyaviy markazlarning reyting bahosi va xalqaro moliya tizimida tutgan o'ri, turli ko'rsatkichlar majmui asosida qisqacha tavsifini aniqlab ko'rsatadi.

Moliyaviy markazlarni baholash onlayn ravishda berilgan savollarga javoblarni va vositali omillar ma'lumotlarini o'zida qayta ishlab, moliyaviy markazlar reytingini aniqlovchi - vektorlar bazasi bilan ishlovchi model (support vector machine (SVM)) orqali amalga oshiriladi. SVM statistik usullar asosida o'tgan davrning murakkab ma'lumotlarini tasniflab, qayta ishlab yangi prognoz ko'rsatkichlarni aniqlab beradi. Shuningdek, SVM diskret, ma'lum kategoriyalarga tegishli hamda uzluksiz sonli yoki davriy ketma-ketliklar ustidagi amallarni ham yaxshi bajaradi.

Tahlillar shuni ko‘rsadiki, global moliyaviy markazlarni baholashda tahlil uchun tanlab olingan vositali omillar (instrumental factors, yoki xalqaro reytinglar, indekslar) soni borgan sari ortib bormoqda. Xususan, 2007 yilda mart oyida daslabki nashr etilgan Global moliyaviy markazlar indeksi (GFCI) hisoblashda, moliyaviy markazlarni baholashda 47 ta vositali omillardan foydalanilgan bo‘lsa, bugungi kinga kelib ularning soni 150 dan oshib ketgan (1-rasmga qarang). Bu esa, o‘z navbatida xalqaro moliyaviy markazlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun uning xalqaro reyting va indekslarda ochiq-oshkora, shaffof baholanishiga, yoki ulardagi o‘rnini yaxshilashga doimo e‘tibor qaratish lozim.



Izoh: “2007 yil (GFCI 1, mart)” – 2007 yilda mart oyida nashr etilgan Global moliyaviy markazlar indeksi (GFCI)

**1-rasm. Global moliyaviy markazlar indeksi (The Global Financial Centres Index, GFCI)ni hisoblashda tahlil uchun tanlab olingan vositali omillar (instrumental factors, yoki xalqaro reytinglar, indekslar) soni, dona [18]**

Toshkent shahrini GFCIda indeksatsiya qilinishi uchun avvalo uning uyushgan (associate) markaz maqomini oshirib borish lozim. Xususan, unga beriladigan baholar (baho ko'rsatkichlari) sonini 150 ga etkazish talab etilmoqda.

## MUHOKAMA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4210-son Qarorini qabul qilinishi mamlakatimizning xalqaro maydondagi ijobiy obro'sini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini xolis va haqqoniy baholashni ta'minlash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, ko'rilayotgan choralarga qaramasdan, mamlakatda tegishli yo'nalishlar bo'yicha milliy reytinglarni yuritishga yordam beradigan, amalga oshirilayotgan islohotlarning xalqaro mezonlar va standartlarga muvofiqligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emasligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni baholashning yaxlit va mustaqil tizimini shakllantirish, shuningdek, respublikaning xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashni ta'minlash maqsadida:

– O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va Adliya vazirligining O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi o'rnini monitoring qilish va baholash milliy tizimini (Milliy monitoring tizimi) yaratildi;

– Boshqaruv sifati va siyosatning samaradorligini o'lchash, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonini baholash, tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam beruvchi ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari Milliy monitoring tizimining tarkibiy qismi etib belgilandi.

Milliy monitoring tizimi faoliyatini tashkil etishning dastlabki bosqichi sifatida respublikadagi tadqiqot institutlariga alohida jahon amaliyotida keng ommasi

tomonidan tan olingan 17 turli xalqaro reytinglar biriktirilgan<sup>1</sup> (1-jadvalga qarang) va ularga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

– xalqaro reytinglarning metodologik va boshqa tarkibiy qismlarini aniqlash, ularni amaldagi qonunchilikka implementatsiya qilish, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi past ko‘rsatkichlariga sabab bo‘layotgan asosiy omillarni aniqlash;

– o‘zini o‘zi baholash uchun ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari asosida milliy indekslarni ishlab chiqish;

– loyihalar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yuksaltirishga to‘sqinlik qilayotgan normalarni aniqlash nuqtai nazaridan ekspert tahlil qilish hamda tahlil natijalariga ko‘ra tegishli tavsiyalar ishlab chiqish;

– O‘zbekiston Respublikasining tegishli reytinglardagi rivojlanish jarayoni to‘g‘risidagi axborotlarni, shuningdek, baholanayotgan yo‘nalishlar bo‘yicha tavsiyalar va xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasini o‘z ichiga olgan axborotlar ma‘lumot bazasini yaratish;

– O‘zbekiston Respublikasining ustuvor xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashga to‘sqinlik qilayotgan mavjud haqiqiy muammolarning tizimli tahlilini olib borish, ularni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

– xalqaro tashkilotlar, reyting agentliklari va ilmiy muassasalarning ekspertlari bilan hamkorlik o‘rnatish va konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish;

– tegishli tarmoqlardagi muammolarni aniqlash va ahvolni o‘rganish uchun ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, shuningdek, mamlakatda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish doirasida turli sohalarda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar to‘g‘risida jamoatchilik va xalqaro reyting agentliklarini xabardor qilish.

---

<sup>1</sup> Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son qaroriga ilova qilib berilgan

1-jadval

**Mamlakatimizdagi alohida tadqiqot institutlariga biriktirilgan, O‘zbekiston indeksatsiya qilinadigan jahon keng ommasi tomonidan tan olingan xalqaro reytinglar ro‘yxati [17]**

T/r	Xalqaro reyting nomi
1.	Iqtisodiy erkinlik indeksi (Index of economic freedom)
2.	Global raqobatbardoshlik indeksi (The Global Competitiveness Index)
3.	Biznesyuritish (Doing business)
4.	Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) kredit reytingi
5.	Huquq ustuvorligi indeksi (The Rule of law index)
6.	Korrupsiyani qabul qilish indeksi (The Corruption perceptions index)
7.	Inson kamoloti indeksi (Numan development index)
8.	Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksi (The Democracy index)
9.	Erkin matbuot indeksi (Worldwide press freedom index)
10.	Logistika samaradorligi indeksi (Logistics performance index)
11.	Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (The UN E-Government development index)
12.	Statistik salohiyat indeksi (Statistical Capacity Indicators)
13.	Raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksi (Competitive Industrial Performance Index)
14.	Korrupsiyani tiyib turish (Control of Corruption)
15.	Innovatsiyalar global indeksi (The Global Innovation Index)
16.	Boshqaruv sifati indikatorlari (Worldwide governance indicators)
17.	Budjet ochiqligi (Open budget index)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o‘rnini yaxshilash uchun mas’ul bo‘lgan boshqa vazirliklar, idoralar va tadqiqot institutlari bilan birgalikda 2019-yil



1-aprelga qadar Internet tarmog'ida quyidagilarni o'z ichiga olgan "O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda" yagona portali[16] yaratildi:

- xalqaro reytinglar bo'yicha yillik hisobotlar, shuningdek, hisobotlarni o'rganish va e'lon qilish muddatlarini ko'rsatgan holda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ishlar ahvolini yaxshilashga qaratilgan xalqaro tashkilotlar va ekspertlarning tavsiyalari;

- xalqaro reytinglar indikatorlari bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasiga oid axborotlar;

- tegishli reytinglar yo'nalishlari bo'yicha jamoatchilik fikri so'rovnomalari, shuningdek, ijtimoiy va ilmiy tadqiqotlar natijalari;

- xalqaro reytinglar savolnomalari shaklida har bir indikator kesimida to'liq va aniq ma'lumotlar, shu jumladan statistik ma'lumotlar;

- tegishli reytinglar bo'yicha turli ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish imkoniyati;

- tegishli xalqaro reyting metodologiyasi bo'yicha onlayn o'qitish resursi;

- respondentlar tomonidan joylarda qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflarni taqdim etish imkoniyati.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi "O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda" yagona portali faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yangilash bo'yicha mas'ul organ etib belgilandi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'rnini yaxshilash uchun mas'ul vazirliklar, idoralar va tadqiqot institutlari har chorak yakuni bo'yicha keyingi o'ning 15 sanasiga qadar O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risidagi ma'lumotlar, zarur statistik axborotlar va boshqa materiallarni taqdim etishni ta'minlaydi.

Bunda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'rnini yaxshilash uchun mas'ul vazirliklar, idoralar va tadqiqot institutlari rahbarlari "O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda" yagona

portalida e'lon qilinadigan axborotlarning ishonchliligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Alohida reytinglar uchun mas'ul bo'lgan tadqiqot institutlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi PF-5635-son Farmoni [19]da belgilangan, O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglardagi va alohida tarkibiy indikatorlardagi o'rnini yaxshilash uchun mas'ul vazirlik va idoralarga:

- O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlari va qonunchilik talablarini hisobga olgan holda xorijiy davlatlarning ijobiy tajribasiga asoslangan tegishli reytinglar metodologiyasini ishlab chiqish va tasdiqlashni ta'minlash;

- tegishli reytingda O'zbekiston Respublikasining rivojlanishi tendensiyalari haqidagi ma'lumotlarni, baholanayotgan yo'nalish bo'yicha tavsiyalar va xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'z ichiga olgan axborotlar ma'lumot bazasini shakllantirish;

- vazirlik va idoralar xodimlarini baholash metodologiyasi bilan tanishtirish, ularda reytinglar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha seminar-treninglarni, shu jumladan xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda tashkil qilish;

- ikki oy muddatda xalqaro reytinglarni tuzuvchilar, shuningdek xalqaro reytinglarga aloqador boshqa xalqaro, ilmiy-tadqiqot, nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlikni o'rnatish masalalarini ko'rib chiqish vazifalari berilgan.

## **XULOSA**

Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, moliya bozori va moliyaviy operatsiyalarga xalqaro standartlarni joriy etish ishlarini jadallashtirish, pirovardida milliy iqtisodiyotda iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish uchun mamlakatimizda xalqaro moliyaviy markazni shakllantirish lozim. Bu vazifalarni bajarishga munosib shahar, Toshkent shahri hisoblanadi. Yurtimizda xalqaro moliyaviy markazlarni shakllantirish uchun mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi tutgan o'rnini yaxshilash va boshqa dunyoda tan olingan xalqaro reyting ko'rsatkichlarda ham indeksatsiyalanish ko'lamini yanada oshirish zarur.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Geddes P. *Cities in Evolution* / P. Geddes. – London: Williams & Norgate, 409 p.
2. Hall P. *The World Cities* / P. Hall. – London: Weidenfeld & Nicolson, 256 p.
3. Reed H. *Financial Center Hegemony, Interest Rates and the Global Political Economy* / H. Reed // *International Banking and Financial Centres*. – London: Kluwer Academic Press.
4. Reed H. *The Preeminence of International Financial Centers* / H. Reed. – New York: Praeger, 148 p.
5. Kindleberger Ch. *The Formation of Financial Centers: A Study in Comparative Economic History* / Ch. Kindleberger. – Princeton: Princeton University Press, 114 p.
6. Bank for International Settlements. *International Banking and Financial Market Development* // *BIS Quarterly Review*. – P. 33.
7. Hong Kong Monetary Authority. *Financial infrastructure in Hong Kong* / HKMA // *HKMA Background Brief*. – No. 4. – P. 46.
8. Kaufman G. *Emerging Economies and International Financial Centers* / G. Kaufman // *Review of Pacific Basin Financial Markets and Policies*. – Vol. 4, 4. – P. 365-377.
9. Sheng A. *The Development of Global Financial Centres* / A. Sheng. – Johor Bahru: University of Malaya, 2006. – URL: [http://www.ammannato.it/pptube/presentations/fin\\_gfm6.ppt](http://www.ammannato.it/pptube/presentations/fin_gfm6.ppt) (data obrashcheniya: 10.02.2018)
10. Hines J. *International Financial Centers and the World Economy. Step Report 2009* / J. Hines. – London: Society of Trust and Estate Practitioners, 2009. – P. 3

11. Waris A. Tax Haven or International Financial Centre? The Case of Kenya / A. Waris. – Bergen: Chr. Michelsen Institute, 2014. – P. 2.
12. Mwanyumba R., Maranga J., Magare M. A Review of the Nairobi International Financial Centre. Nairobi International Financial Centre or Nairobi Tax Haven? / R. Mwanyumba, J. Maranga, M. Magare. – Vienna: Vienna Institute for International Dialogue and Cooperation, 2017. – P. 7.
13. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. / Под ред. Л.Н. Красавиной. - 5-е изд., перераб. и доп. – М.:Юрайт, 2020. - 534 с: ил. С. 270.
14. Ataniyazov, J. X., & Alimardonov, E. D. “Xalqaro moliya munosabatlari” Toshkent-2014. UFMJ., Darslik, 279, 280.
15. Ataniyazov J and Sayfullokhon N. (2022) Stock Market in Uzbekistan: Current Situation and Development Prospects, British Journal of Multidisciplinary and Advanced Studies: Business and Management Sciences, 3(1),1-10
16. <https://www.longfinance.net/programmes/financial-centre-futures/global-financial-centres-index/gfci-publications/> - ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son qarori
18. <http://ratings.gov.uz/> - “O'zbekiston Respublikasi xalqaro reytinglarda” yagona portal
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” PF-5635-son Farmoni.